

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**«BOSHLANG`ICH SINFLARDA SIFATLI TA`LIMTARBIYA BERISHNING
ZAMONAVIY USULLARI»**

Uzoqova Xurriyat Rahmatxo‘ja qizi

Farg‘ona viloyati Toshloq tumani

32-maktab boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda sifatli ta‘lim-tarbiya berishda qanday muammolar mavjudligi, ularni bartaraf etish usullari hamda darsliklarga kiritilish lozim bo‘lgan samarali ko‘rsatmalar bosqichma-bosqich yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta‘lim, bunyodkorlik, “Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiysi”, pragmatik yondoshuv.*

Ilm-fan taraqqiy etishi jadal suratlarda o`smoqda. Boshlang‘ich ta‘lim har qanday sohaning rivojlanishi uchun mustahkam poydevordir. Chunki unda biz orzu qilayotgan kelajak bunyodkorlari kamol topadi. Ayniqsa, bolaning butun umrlik hayoti davomida xotirasida qoladigan taassurotlar ham ayni boshlang‘ich sinf davriga to`g`ri keladi. Uning murg`ak qalbi, shuuri rang-barang orzularga limmo-lim to`libtoshayotgan bu vaqtida o`ziga ishonch, qat`iyatni his qilishi, mustahkam bilim olishi uchun biz ustozlar bor mehrimiz bilan, barcha imkoniyatlarimizni ishga solib saboq berishimiz muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirish uchun ko`plab salmoqli ishlar olib borilmoqda. —Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiysi qoidalar jamlanmasi, boshlang‘ich sinflar uchun yaratilayotgan zamonaviy darsliklar, turli janrlarga oid qiziqarli asarlar, mantiqiy masalalar, qimmatli ma`lumotlar mavjud mavzular, mavzular uchun multimedia ilovalari, matnlar uchun ishlangan rasmlar, turli topshiriqlarning barchasi bugungi kun bilan hamohang va mukammalligi quvonarli holat, albatta. Ammo jonajon dilbandlarimiz yanada sifatli ta‘lim-tarbiya olishlarida nimalarga ahamiyat berish kerak?, qanday samarali rejalar ishlab chiqish kerak? kabi savollarga dolzarb hamda aniq maqsadli rejalar tuzib olish zarur hisoblanadi. Joriy yilning 6-noyabrida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PF48/84-sonli qarori 1-bandida maktabgacha ta‘lim muassasalarida 6 yoshli bolalarni majburiy bepul maktabga tayyorlov hamda qisqa muddatli guruhlar faoliyatini keng yo`lga qo`yish; 5-bandida ilk yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun innovatsion tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish¹ kabilar siyosat darajasiga olib chiqilganligining o`zi boshlang‘ich ta‘lim rivojlanishini kafolatlovchi yana bir pog`onaga ko`tarilish edi.

Demak, maktabgacha ta‘limda boshlang‘ich 1-sinflar uchun 6 yoshli bolalarni bepul majburiy tayyorlov guruhlariga jalb etish, o`zbek tilimizning alifbosidagi harflarni o`qish hamda harf elementlarini yozishlarini shakllantirish, o`quvchilarga tayyorlovda tahsil olganligi to`g`risidagi sertifikatlar taqdim qilish maqsadga muvofiq.

O`quvchilarning 1-sinfga tayyor holda kelishi natijasida rus tili, ingliz tili alifbosini osongina o`rganish imkoniyati tug`iladi. Keyingi yana bir reja multimedia ilovalari bilan bog`liq. Darsliklar uchun ishlangan ilovalar bolalarni quvontirish bilan birga dars samarali chiqishida o`qituvchiga yordamchi vazifasini o`taydi. Ammo bu ilovalarni namoyish etish uchun hamma vaqt ham texnik jihozlarning yetarli bo`lmasligi mumkin. Shuning uchun darsliklarda multimedia ishlangan mavzular tagiga ilovaning elektron manzili aniq ko`rsatilib ketilsa, har bir o`quvchi uyda o`tirib ham onasi bilan hamkorlikda miriqib berilgan topshiriqlarni tayyorlashi, mavzuni mukammal qayta o`rganib olishi mumkin bo`ladi. Bu o`z-o`zidan pragmatik yondoshuvni hosil qiladi. Bola o`qituvchi tushuntirgan mavzuning qaysidir joyi xayolidan ko`tarilishi, tushunmagan holatlari uchun uyda darsdan so`ng mustaqil ishlash uchun ayni muddao bo`ladi. O`quvchilarda kitoblarni asrab-avaylash, ularga nisbatan hamisha do`stona munosabatda bo`lish tuyg`ulari kamol topadi.

Darsliklarimizda ko`zda tutilgan nazariy bilimlarning amaliyat bilan chambarchas bog`liqlikda ish olib borish davri yetib keldi. Hozir hammaning uyida mobil telefon mavjud. U doimo bola e`tiborida turadi. Chunki telefonda bola uchun qiziqarli o`yinlar, turli quvnoq ilovalar bor.[3] Ko`p hollarda ota-onalar farzandlarining mobil o`yinlarni tinimsiz o`ynayotgani, kitob o`qitish yoki vazifasini tayyorlatish eng murakkab jarayonga aylanib borayotganidan shikoyat qilishadi. Demak, 1-4-sinflar kesimida yosh-psixologiyasi, bilim darajasidan kelib chiqib, o`zbek tilidagi mobil ilovalarni yaratish hamda ommaga taqdim etish lozim. Masalan, ertak qahramonlari, voqealari aks etgan ilovani olaylik. O`quvchi shu ertakka qarab uning nomini harflardan terib topadi. Bunda harflar sakrab, aylanib yoki turli harakatlar bilan kelishi mumkin. So`z to`g`ri yozilgan bo`lsa, —Balli!, —Ofarin! deb rag`batlantirishni ham inobatga olish kerak. Bu orqali ota-onsa bilan bolani hamkorlikda savodxonligini oshirishda esda qolarli o`yin tashkillanadi. Shunday qilib ham bolaning ehtiyojini qondirish imkoniyati tug`iladi. Bundan tashqari, xalq og`zaki ijodi mahsuli hisoblangan —Alpomishli, —Rustamxon!, —Ravshan! dostonlari, —Shiroq!, Najmiddin Kubro to`g`risidagi hikoyalari aks etgan mobil ilovalar yaratish bugungi kunning ehtiyojidir. Xususan, Alpomishni qutqarish uchun Qorajonning yordam berishi, Yosuman kampirning o`g`illari qanchalik kurashsa-da ezgulik ustidan g`alaba qozonolmasliklari aks etgan o`yinlar bolada milliy qadriyatlarimizni, chinakam o`zbeklarga xos mentalitetimizni, xalqimizning boy tarixini amaliy yorqin ranglarda ko`rsatib beradi.

Matematika darsliklarida ham masalalar uchun —uch tomonlama tasvir! ilovasini yaratish kerak. O`quvchi darsda tushunmay qolgan masalasini uyga kelib, ota-onasi yordamida sayti ko`rsatilgan manzil orqali masala ilovasini bemalol telefondan o`rganishni nazarda tutadi. Ya`ni —masalaning jonli harakati! desak ham bo`ladi. Shunda masalaning mazmuni va mohiyatini chuqurroq anglab yetadi. Keyingi darslarga ham oldindan tayyorlanib borishga harakat qiladi. Ko`rib turibsizki, internet, mobil

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

telefon, o`quvchi, ota-onan o`rtasida dars samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zanjir hosil bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti PF48/84 sonli qarorining ilova dasturi.T.:6-novabr 2020-yil
2. Ahrorova Z. O`qitishning yangicha usullari. // ta`lim va tarbiya, 2003-yil 3-4-sonlari.
3. Abdurazzoqova Z., Mamatova M. Darslarda yangi ilg`or texnologiyaning qo`llanilishi // ta`lim texnologiyalari; 2007-yil 1-soni.